Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Giperbola komponentli frazeologik birliklarda intensivlik semantikasi

Xilola Mirzamaxmudovna Karimova*

Andijon davlat chet tillar instituti

✉ karimovahilda1987@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tezisda giperbola komponentli frazeologik birliklarning semantik-funksional tabiati, ularda namoyon bo‘ladigan intensivlik semantikasi tadqiq etiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida intensivlik ko‘rsatkichlarining o‘xshash va farqli lisoniy xususiyatlari yoritiladi hamda nutqiy vaziyatlarda ekspressivlikni oshirishdagi o‘rni baholanadi.

Kalit so‘zlar

frazeologik birlik, giperbola, intensivlik, ekspressivlik, emotsional ma’no, kuchaytirish, daraja.

DOI: 10.5281/zenodo.23278493

Hozirgi davr tilshunosligida frazeologik birliklar tilning lug‘at boyligi tarkibida alohida o‘rin egallab, xalq tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy tasavvurini o‘zida mujassam etuvchi barqaror birliklar sifatida e’tirof etiladi [1; 5-12-b.]. Frazeologizmlarning katta qismi obrazlilik, hissiy-baholovchilik va ta’sirchanlik xususiyatlariga ega bo‘lib, bu xususiyatlarning shakllanishida turli stilistik vositalar, jumladan, giperbola muhim rol o‘ynaydi.

Giperbola komponentli frazeologik birliklarning semantik tabiatini intensivlik va ekspressivlik munosabatidan tashqarida tasavvur etish mushkul. Biroq bu kategoriyalarni bir-biriga singdirib yuborish ham ilmiy tavsifni xiralashtiradi. Intensivlik belgi yoki holatning darajasini me’yor bilan qiyoslaydi, ekspressivlik esa mazmunning adresatga ta’sir quvvatini oshiradi.

Giperbola komponentli frazeologik birliklar orqali til qanday qilib miqdoriy-sifat ko‘rsatkichlarini emotsional-ekspressiv baholash vositasiga aylantirishini ochib berish kognitiv va funksional tilshunoslik nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarning semantik tuzilishini yoritish frazeologik ma’noning konnotativ qatlamini, xususan, uning intensivlik va ekspressivlik tarkibiy qismlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi [2; 58-63-B.].

Tadqiqotning maqsadi - giperbola komponentli frazeologik birliklarda intensivlik semantikasining shakllanish mexanizmlarini aniqlash va ularning semantik-ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- giperbola komponentining frazeologik ma’no shakllanishidagi o‘rnini aniqlash;
- tadqiq etilayotgan birliklarni struktur-semantik jihatdan tasniflash;
- intensivlik semantikasining daraja (gradual) xususiyatini yoritish;
- ekspressivlikning konnotativ tarkibiy qismlarini (emotsionallik, baholovchilik, obrazlilik, uslubiy bo‘yoq) tahlil qilish.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-lingvistik metodlardan foydalanildi:

- komponentli tahlil ususli. Frazeologik birliklar tarkibidagi leksik komponentlarning giperbolik ma’no hosil qilishdagi ulushini aniqlash:

- qiyosiy-tipologik metod. Ingliz va o‘zbek tillarida intensivlik ko‘rsatkichlarining o‘xshash va farqli lisoniy xususiyatlarini yoritish;

- pragmatik va kontekstual tahlil. Giperbola komponentli frazeologizmlarning nutqiy vaziyatlarda ekspressivlikni oshirishdagi o‘rnini baholash.

E.Sepirning belgi inson tafakkurida qiyosga tayyor darajaviy tartibda idrok etilishi haqidagi qarashi alohida ahamiyat kasb etadi [3; 43-78-b.]. Sh.Balli affektiv nutqni tahlil qilib, miqdoriy kuchayish ekspressiv mazmun bilan yaqin aloqada ekanini qayd etadi [4; 202-205-b.]. I.A.Sternin esa intensivlik semasini leksik ma’no tarkibidagi kuchaytiruvchi unsur sifatida sharhlaydi [5; 8-10-b.]. Bu qarashlar bir masalada tutashadi. Intensivlik belgi yoki holatning me’yor bilan munosabatini ifodalovchi semantik o‘lchovdir. Giperbolik frazemada ana shu o‘lchov chekka darajaga olib boriladi.

Shu o‘rinda intensivlik bilan obyektiv miqdorni farqlash zarur. *O‘n kitob* sanog‘i predmetlar sonini bildiradi, *tog‘dek kitob* esa so‘zlovchi tasavvuridagi ortiqcha ko‘lamni anglatadi. Demak, giperbolik daraja me’yor haqidagi umumiy bilimga tayanadi. Me’yor esa vaziyat, predmet tabiati va jamoaviy tajriba bilan belgilanadi.

Xo‘sh, frazeologik intensivlik nimaning hisobiga kuchayadi? Kartoteka materiali bu savolga yagona javob bermaydi. Daraja turli semantik amallar orqali yuzaga chiqadi, ularning sermahsul ko‘rinishlaridan biri qiyos etaloniga murojaat qilishdir. Ingliz tilidagi *(as) blind as a bat, (as) deaf as a post, (as) thin as a rake* birliklarida belgi kundalik tasavvurda kuchli daraja bilan bog‘langan obrazga nisbatlanadi [6; 108-114-b.]. Bu etalonlarni zoologik yoki fizik haqiqat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Masalan, ko‘rshapalakning real ko‘rish imkoniyati frazeologik stereotip bilan aynan kelmaydi.

O‘zbek tilida qiyos ma’nosi *-dek/-day*, *kabi*, *singari* vositalari bilan birikib, giperbolik etalonni grammatik jihatdan mustahkamlaydi. *Tomdan tarasha tushganday* birligida kutilmaganlik yog‘och parchasining qo‘qqis tushishi bilan qiyoslanadi. Shu tariqa qiyos tasvir yaratish bilangina cheklanmay, belgining odatiy darajasini ham orttiradi. Ingliz tilidagi *as...as* modeli bilan o‘zbek tilidagi affiksal va ko‘makchili qiyos vositalari grammatik tuzilishi jihatidan farq qilsa-da, semantik amal bir yo‘nalishda kechadi.

Miqdorning orttirilishi boshqa yo‘l bilan ham kechadi. *Tons of work, oceans of time, a mountain of paperwork* singari formulalarda sanaladigan miqdor ulkan o‘lchov obrazi bilan almashtiriladi. Biroq bu o‘rinda metodik aniqlik zarur. Bunday qurilmalarni to‘liq idiomatik frazemalar bilan aynanlashtirish ma’qul emas. Ularning ayrimlari barqaror giperbolik kollokatsiya yoki kvantifikator formula maqomida turadi. Shu sabab ularni frazeologik giperbolaning mexanizmini ochuvchi yordamchi material sifatida qabul qilamiz. O‘zbek nutqidagi *qop-qop gap, xirmon-xirmon va’da* kabi shakllar ham miqdorni aniq hisobdan chiqarib, ko‘z oldiga keltiriladigan uyumga aylantiradi.

Kvantifikatsiyada grammatik vosita ham semantik kuchayishga sherik bo‘ladi. Ingliz tilidagi *tons of, loads of, oceans of* qurilmalarida ko‘plik shakli o‘lchovning yagona birlikdan keng ko‘lamga o‘tishini bildiradi. O‘zbek tilida shu mazmunni reduplikatsiya kuchaytiradi. *Qop-qop* shakli *ko‘p qop* birikmasiga teng emas, negaki takror sonning ko‘pligini aytish bilan kifoyalanmay, nutq ritmida ham davomiy ko‘lam hissini uyg‘otadi. Ana shu jihatdan grammatik shakl semantik planning bevosita ishtirokchisiga aylanadi.

Imkonsiz harakat giperbolaning yana bir sermahsul manbaidir. *I could eat a horse* ochlikni real fiziologik imkon doirasidan chiqaradi, *bir yamlab yutmoq* esa g‘azab yoki tahdidni inson tanasi bajara olmaydigan harakat orqali kuchaytiradi. Bunday birliklarda adresat ifodani fakt sifatida tekshirmaydi. Aksincha, voqelik bilan obraz o‘rtasidagi nomuvofiqlikni daraja signali deb qabul qiladi. Shu sabab imkonsizlik kategoriyasi giperbolada kommunikativ vositadir. Vaqtga oid *ming yilda bir* singari formulalar ham shu tamoyilga yaqin turadi. Hodisaning kamyobligi inson tajribasi sig‘dira olmaydigan muddat bilan o‘lchanadi.

Tezlik va shiddat ifodasida ham til ko‘rinadigan etalonga ehtiyoj sezadi. Ingliz tilidagi *quick as a flash, like lightning* birliklari harakat sur’atini yorug‘lik hodisalari bilan qiyoslaydi. *Talk a mile a minute* esa nutq tezligini masofa va vaqt munosabati orqali tasvirlaydi. O‘zbek tilidagi *oyog‘ini qo‘liga olib yugurmoq* iborasida mantiqan yugurishga xalaqit beradigan holat tezlikning belgisi bo‘lib qoladi. Holbuki obrazning mantiqiy imkonsizligi ayni maqsadga mos keladi. So‘zlovchi tezlikni hisoblamaydi, uni tasavvur chegarasidan chiqaradi.

Bir mazmun atrofidagi frazemalar o‘zaro darajaviy munosabatga ham kirishadi. Masalan, bandlik

ma’nosida ingliz tilidagi *busy* bilan *(as) busy as a bee*, *up to one’s ears in work* va *drowning in work* bir xil salmoqqa ega emas. Obraz kuchaygan sari harakat erkinligining qisqarishi ham ortib boradi. O‘zbek tilida *ishi ko‘p*, *ishi boshidan oshgan*, *qo‘li qo‘liga tegmaydi* qatori ham me’yoriy tavsifdan ekstremal holatga tomon boradi.

Giperbola komponentli frazeologik bilrliklar tilda intensivlik semantikasini yuzaga keltiruvchi va emotsional-ekspressiv bahoni ta’minlovchi muhim lisoniy vosita bo‘lib, ushbu iboralarda intensivlik semantikasi harakat, holat, miqdor va belgi-xususiyatlarning normadan yuqori darajada ko‘tarilishini ta’minlaydi. Chog‘ishtirilayotgan tillarda intensivlikning namoyon bo‘lishida milliy-madaniy va kognitiv omillar yetakchi o‘rin tutib, somatik va metaforik komponentlar intensivlik yadrosini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Rahmatullayev Sh. (1978), O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, – 405 b.

[2] Yo‘ldoshev B. (1999), Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri,. – 200 b.

[3] Сепир Э. (1985), Градуирование // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, – С. 43–78.

[4] Балли Ш. (1961), Французская стилистика / Пер. с фр. К.А.Долинина. – М.: Изд-во иностр. лит.,. – 394 с.

[5] Стернин И.А. (1979), Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, – 156 с.

[6] Кунин А.В. (1970), Английская фразеология: теоретический курс. – М.: Высшая школа, – 342 с.